

NASRULLOXON. TARIX SIRLARINI OCHGANDA



Abstract:

Nasrulloxon davrida Buxoro amirligi juda ham rivojlandi. Amir mamlakatni tiklash ishiga katta ahamiyat qaratdi. U mamlakatda harbiy islohot o'tkazdi. Ko'plab to'pchilar qo'shini va piyoda askarlar tuzildi. Askarlar har 3 yilda bir marta kiyim bosh bilan ta'minlab turildi. Nasrulloxon davrida ko'pdan buyon mustaqillikka da've qilib yurgan Shahrishabz va Kitob hududlarini egalladi. Amir qattiq qo'l siyosati uchun xalq orasida Xoni shahid (Shahid xon) nomi bilan atalgan.

Key words:

Buxoro amirligi, Nasrulloxon, Muhammad Hakimbiy, kenagas , qo'shbegi, Qo'qon, qo'shin , Mang'itlar, elchilar, Mirzo Salimbek, Buyuk Britaniya.

Author of the article:

Muhammadiyeva Zulayho
Ilhom qizi

Workspace (Education subject)

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 24-may kuni "Qadimiyo yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli qarorni imzoladi. Qarorga keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan. Ma'lumki, Buxoro amirligi vujudga kelishi bilan uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Buxoro savdosi shahar hayotida katta va muhim o'rinn egallagan. Ko'p sonli manbalar, sayyohlarning yozganlari, elchilik hujjatlari, elchilarning hisobotlari, statistik hisobotlar va ilmiy adabiyotlar xonlikning savdo munosabatlari haqida ma'lumot beradi.

Manbaga oid adabiyotlar tahlili. Buuxoro amirligi tarixi yoritilgan adabiyotlarni shartli ravishda guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. 1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlar. 2. Sovet davri adabiyotlari. 3. Mustaqillik davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar. 4. Buxoro amirligligi tarixinining ayrim masalalarini o'zida aks ettirgan horijlik mualliflarning asarları. Buxoro amirligi tarixinining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga K.G.Mityayev,G.A.Belov,V.I.Vyalikov,P.Kozlitin,V.V.Maksakov,I.L.Mayakovskiy,I. Alimov,A.Mirzayev,V.Vays,G.M.Dremina,V.Kote,V.I.Vliyakov,Z.V.Krayskaya, L.Myaskovakabilarning asarlarini kiritish mumkin. Buxoro amirligi tarixiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, bu davrda yaratilgan asarlar turli ijtimoiy guruhlarga mansub mualliflar tomonidan yozilganligi, ularda amirlik siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tavsifiga asosiy e'tibor qaratilganligi, mamlakatdagi savdo munosabatlarini tahlil etishga bag'ishlangan maxsusu tadqiqot yaratilmaganligi, bu asarlar asosan informativ xarakterga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

«Development of science» international conference

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalanildi. Tahlil va natijalar. Amir Nasrulloxon faoliyati to'g'risida sovet zamonasida ham, bugungi kunda ham tadqiqotchilar ko'p yozishgan. Biroq bu asarlarning aksariyatida mang'itlar sulolasining ushbu hukmdori hayoti va faoliyati bir tomonlama ko'rsatilib, Nasrulloxon qiyofasi faqat qora bo'yqlarda tasvirlangan. Aslida tarixchining ixtiyorida faqat oq va qora ranglar yohud ijobjiy va salbiy mulohazalarning biri bo'lmasdan, u har qanday tarixiy shaxsni o'sha davrda kechgan tarixiy voqealar ichida xolis tasvirlashi, tarixiy shaxslarga baho berayotganda zamona sozlik qilmasdanadolat posangisini o'ta sergaklik bilan ushlashi lozim. Nasrulloxon haqida bugungi kunda turli da'volar va yuzazaki mulohazalar bildirayotgan mualliflarning aksariyati tarixchilar emas, balki jurnalistlar, adiblar, adabiyotshunos olimlar va boshqa kasb egalari ekanligi esa muammoning ancha jiddiyligi va chuqurligidan dalolat beradi. Taassufki, bu iddaolar bir tomonlama aytileyotgan, o'ta keskin fikrlardan iborat bo'lmoqda. Bunday holat O'zbekiston tarixida, shuningdek, Buxoro haqiqiy tarixida o'ziga xos rol o'ynagan bo'lsa, shuningdek haqiqat aynan tarixchi olimlar tomonidan jamoatchilik hukmiga tezroq havola etilishini kun tartibiga qo'yadi. Shu jihatdan olib qaraganda mazkur maqolada Nasrulloxon fenomeni, uning Turkiston tarixidagi o'rni xususida so'z boradi.

Tarixga xoni shahid (shahid xon) nomi bilan kirgan Mang'itlar sulolasining yettinchi hukmdori Amir Nasrullo Bahodurxon 1806-yil 1-iyun Buxoro shahrida Amir Haydarning xonardonida ikkinchi o'g'il sifatida dunyoga keldi. Bu haqida mashhur alloma Ahmad Donish o'zining "Tarixi sultanati mang'itiya" asarida yozib qoldirgan. Ular fikricha, Amir Nasrullo 63 yoshida 1860-yil vafot etgan. Demak, ularning yozganlaridan Amir Nasrullo taxminan 1797-yilda tug'ilganligini anglatadi. Biroq, u Amir Haydar xonardonida ikkinchi o'g'il ekanligini e'tiborga olsak, Ahmad Donishning yozgang fikri haqiqatga anchagini yaqinroqdir. Nasrulloxonning ma'nnaviy kamolotga erishuvida Buxoroda katta nufuzga ega bo'lgan mashhur Shayx Muhammad Husayn Alaviy Buxoriy (1785-1870) muhim rol o'ynagan. Keyinchalik Nasrullo o'zining piri hisoblangan bu shayxni Romitan tumanidagi Qori Kamol qishlog'idan Buxoro shahriga ko'chirib keltirib, unga Shayx Habibullaxon xonaqosidan maxsusus hujra ajratib bergen va nafaqa tayinlagan. Bu ma'lumotlarni tarixchi olim Muhammad Nasriddin Hanafiy Hasaniy Buxoriy (Amir Muzaffarning o'g'li) o'zining 1910-yil Yangi Buxoroda nashr etilgan "Tuhfat az-zoirin" ("Ziyoratchilarga tuhfa") asarida keltirib o'tadi. Nasrulloxon otasi Amir Haydar hamda birodarlar Husayn va Umarxonlarning davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Haydar vafoti (1826-yil 6-oktyabr) dan so'ng hokimyat uchun kechgan keskin kurashlarda birodarlar Amir Husayn (1797-1826) va Amir Umarxon (1810-1829) hamda boshqa ukalari ustidan g'olib kelib, 1827-yil aprel oyining boshlarida 21 yoshida Buxoro amirligi taxtiga o'tirdi. Amir Nasrulloxon Buxoro amirligi taxtiga o'tirgan mang'itlar sulolasining yettinchi hukmdori bo'ldi. Tarixchi olim Mirzo Abdulazim Somiyning fikricha, Buxoro amirligi taxtini egallahda Nasrulloxon ga otasining vaziri bo'lgan Muhammad Hakimbiy qo'shbegi katta yordam ko'rsatgan. U Buxoroni qamal qilib turgan Nasrulloxon qo'shinlariga shahar darvozasini ochib beradi. Nasrulloxon ham ko'pchilik Mang'it amirlari yo'l qo'ygan noxush bir xatoni takrorlaydi. Mang'itlar o'zbek qavmi bo'lishiga qaramasdan, Buxoro amirligini rasmiy ravishda 1756-yil 12-dekabrdan boshlab boshqarishga kirishganlardan so'ng qo'shbegi (bosh vazir) lavozimiga ko'pincha o'zbeklarni emas, balki eroniylar (forslar)ni qo'yishgan. Kelib chiqishi eroniylar qullarga borib taqalgan va Islom dinining shia mazhabiga e'tiqod qilgan bunday qo'shbegilarning odatda Buxoroda qarindosh-urug'lari va yaqin do'stlari bo'limganligi uchun ular amirga sadoqat bilan xizmat qiladi, deb o'ylashgan. Biroq eroniylar qo'shbegilar o'z mavqelarini tiklab olgach, amirlikning asosiy tub joy aholisi bo'lgan turkiy

«Development of science» international conference

xalqlarni, xususan, o'zbeklarni kamsitgan va mensimagan. Bu holat keyinchalik Buxoro amirligida turli nizolarni keltirib chiqargan (ushbu satrlar muallifi 2005-yil 15-oktyabrda "Buxoronom" gazetasida bosilgan "Buxoro qo'sh begilari" maqolasida bu haqda qisman to'xtalib o'tgan). Amir Nasrullo 1860-yil 21-sentyabrda 55 yoshida Buxoro shahrida fojeali vafot etgan. Buxoro tarixnavislik matabining namoyandalari Amir o'limining tafsilotlariga to'xtalib o'tirmay, odatda bu haqida qisqacha ma'lumot berib o'tishadi. Ahmad Donish, Mirzo Abdulazim Somiy, Mirzo Salimbek (Salimiyl), Sayyid Mansur Olimiy (Amir Said Olimxonning o'g'li) kabi buxorolik tarixchilarining fikrlarini umumlashtirib aytadigan bo'ilsak, "Amir Nasrullo 1277- hijriy (milodiy 1860) yilda 35 yil va bir oy sultanat qilib, 63 yil umr ko'rib vafot etdi. U qulog og'rig'i kasali bilan vafot etgan. Dushanba kuni otasining yonida dafn etildi, uning qabri Eshoni Imlodadir". Ahmad Donish boshqa Buxoro tarixchilaridan farqli ravishda Amir Nasrullo tug'ilgan va vafot etgan sanalarni aniq ko'rsatib, u hijriy yil hisobida 35 yil hukmronlik qilganligini va 56 yil yashaganligini ta'kidlaydi. (Biz ushbu tadqiqotga Ahmad Donishning, yuqorida fikrlarini asos qilib olib, Amir Nasrullo umri chegaralarini Donish yozganidek, 1806-1860 yillar doirasida belgiladik. Nasrulloxon o'z ajali bilan o'lmay, fojeali tarzda halok bo'lganligi ham ayni tarixiy haqiqat. Shuning uchun ham Amir Nasrulloning o'limi to'g'risida Turkiston jadid taraqqiy parvarlarining asarlari va XX asr sovet davri tarixshunosligida an'anaviy o'zbek tarixshunosligiga nisbatan boshqacharoq qarashlar shakllandi. Buxoro jadidlarining mashhur namoyandalari Sadreddin Ayniy va Fitrat tomonidan ular sovet pozitsiyasiga o'tgan XX asr 20-30-yillarida tarixiy va badiiy asarlarda bu voqeja tafsilotlariga asosiy ayb Nasrulloxonga yuklatilib, uning o'limida bosh aybdor bo'lgan Kenagashxonim shaxsiyati ulug'lanadi Nasrullo o'limiga sabab bo'lgan o'sha voqeanning asosiy tafsilotlari esa quyidagicha Shahrisabzning sobiq hokimi Iskandar vallamiyning singlisi Kenagashxonim (Fitratning yozishicha, Kengashoyim) o'z akasining g'arazli rejasiga binoan o'z shahvari (eri) Amir Nasrullo uylab yotganida uning qulog'iga simob qo'ygan. Qulog og'rig'i dardiga duchor bo'lgan Nasrulloxon o'limi oldidan o'z shahvarining joniga qasd qilgan Kenagashxonimni Ark ichidagi Childuxtaron qudug'iga tashlashni buyuradi. Bu paytda Buxoroda yashayotgan Iskandar Vallamiy va uning butun oila a'zolari, shuningdek, kuyovi Yoqubbiy va uning farzandlari ham amirning o'limi oldidan qatl qilinadi. Xullas, Amir Nasrullo unga qilingan suiqasd natijasida qulog'iga simob qo'yilgandan keyin bir necha kun o'tgach 1860 - yil 21- sentyabrda qattiq qiynalib, fojeali tarzda jon taslim qildi. Amir Nasrullo Buxoro shahridagi Jo'ybor mavzesida joylashgan Eshoni Imlo (Xazrati Imlo) qabristoniga, otasi Amir Haydar qabri yonida dafn etilgan. Amir Nasrullo vafot etganda undan yolg'iz o'g'il Muzaffariddin qolgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Amir Nasrullo o'limi oldidan Buxoro toj-u taxtini yolg'iz o'g'il Muzaffariddinga emas, balki ko'p sonli nevaralaridan biriga vasiyat qilib qoldiradi. Biroq Buxoro amirligi taxtiga 1860-yil 23-sentyabrda Amir Muzaffarxon o'tiradi. Amir Nasrulloning bevaqt o'limi keyinchalik ko'plab salbiy oqibatlarga olib keldi. Amirlikda o'tkazilayotgan islohotlar uning vorislari davrida to'xtab qoldi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi uchala xonlikka qarshi harbiy harakatlari, Buxoro amirligining Rossiya tajovuzi ga qarshi jiddiy qarshilik ko'rsata olmaganligi va oqibatda mag'lubiyatga uchrab, mamlakat hududining katta qismini boy bergenligi ushbu oqibatlarning eng asosiylari hisoblanadi. Sadreddin Ayniyning "Buxoro jaloddiali" (1920), "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" (1920-1921; Moskva, 1926), "Tarixi amironi Mang'itiyai Buxoro" ("Buxoro Mang'it amirlari tarixi") (Toshkent, 1923) kabi tarixiy tadqiqotlari, "Qullar", "Doxunda" singari tarixiy romanlari va keyinchalik yozilgan "Esdaliklar" asarida, Fitratning "Amir Olimxonning hukmronlik davri" (Dushanbe, 1930) risolasida mang'itlar sulolasining butun "kirdikorlari" ochib tashlandi. Buxoro tarixining qariyb 200 yil davom etgan davri, Mangit hukmdorlari (amirlar) faoliyati faqat qora bo'yoqlarda tasvirlandi. Tanqid tig'i dastawwal mang'itlar sulolasining so'nggi

«Development of science» international conference

hukmdori Amir Sayyid Olimxon (1881-1944) ga qarshi qaratilganligi o'sha davrdagi siyosiy va harbiy vaziyatlar taqozosiga ko'ra normal hol hisoblanadi. Biroq barcha Mang'it amirlarini, jumladan, Amir Nasrulloni asossiz ravishda qoralash jarayoni yoppasiga ommaviy kompaniyaga aylantirildi. Bu holat Qo'qon tarixnavislik mакtabiga mansub jadid taraqqiyparvari Ishoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida ham o'zining yaqqol ifodasini topgan. Ibrat va Fitrat tomonidan Nasrulloxon "Botur qassob", "Qassobning botiri" degan mash'um nomlarga sazovor bo'ldi. Fitrat o'zining 1930-yili yozgan "Amir Olimxonning hukmronlik davri" nomli tarixiy risolasida barcha Mang'it amirlari singari Amir Nasrullo faoliyatini ham faqat qoralash bilan shug'ullanadi. Fitratning ushbu asaridan quyidagi iqtibosni keltirib o'tmoqchimiz: "Amir Haydardan keyin uning o'gli Amir Husayn taxtga o'tirdi, biroq ikki oy-u necha kundan keyin u vafot etdi. Uning o'rnini Amir Umar egalladi. Biroq Amir Haydarning o'gli Amir Nasrullo o'zining birodariga qarshi lashkar tortib Buxoroni o'rab oldi va hukumatni o'z qo'liga oldi. Nasrullo oldin Amir Umarni omon qoldirib, Buxorodan chiqarib yubordi, ammo o'z ahdiga vafo qilmay orqasidan jallodini yubordi. Jallod Amir Umar boshini kesib keltirdi. Nasrullo o'zining boshqa aka-ukalarini ham turli hiylalar bilan o'lirdi va Buxoro hukumatiga hech qanday raqibsiz ega bo'ldi. Unga "Qassobning botiri" laqabi berilgan edi. P. Ravshanov o'z fikrlarini tarixiy dalillar bilan asoslash o'rniga Amir Nasrullo faoliyatini qoralashga, uning shaxsiyatiga loy chaplashda davom etib, yana quyidagi so'zlarni alamlı bir ehtiros bilan yozadi: "Amirning savdoysi mijozligi shu darajaga yetadiki, ittifoqo biror amaldor yoxud savdogar, qozi yoki muftiy ismi-sharifi biror bahonada qulog'iga chalinib qolsa bormi, yetti uqlab tushga kirmaydigan qaltsis o'yin o'ylab topardi...", "Amirning razolati shu darajada ediki, davlatning harbiy qudratiga daxldor, vaqtida bemisl xizmatlar qilib qo'yganki, kishilar ham bir soniyada dushmaniga aylantirib qo'yilardi. Shubha va gumonchilik amirning qoniga kirib olgan iblislar edi... " Mang'itlar sulolasidan Amir Nasrullodek qattol podsho o'tmagan edi. Raiyat uni bir vaqtlar hukm surgan mo'g'ul xoni Qozonxonga qiyos qilardi". O'zining aql-zakovati va harbiy iste'dodi bilan Mang'it amirlari o'rtasida alohida ajralib turgan, uning bu xislatlariga hatto dushmanlari ham tan bergen Amir Nasrulloni bugungi o'zbek adibi "savdoyi mijoz" deb ta'riflasa?!

P. Ravshanov yuqoridaqgi fikrlar bilan cheklanmasdan, tarixiy shaxs haqidagi tarixiy qissada o'z ehtiroslariga erk berib, mubolag'a va bo'rttirish san'atidan ham unumli foydalanadi. Uning yozishicha, Nasrulloxon 1856-yil Shahrisabzni egallaganidan keyin shaharda quyidagicha holat yuz bergen: "Amir Nasrullo Shahrisabzda turgan kunlar ariqlardan suv o'rniga qonlar oqadi.

Xulosa. Xullas, Amir Nasrullo haqida bugungi kunda faqat ilmiy maqolalar va risolalar yozish bilan cheklanmasdan, tarixiy manbalar asosida uning fenomenini chuqur o'rganish, hukmdor sifatidagi siyosiy faoliyatini butun murakkabliklari va ziddiyatlari bilan xolis tasvirlash, yurt tarixining o'sha Suropli va qayg'uli davri hamda shavkatli va g'olib hukmdori (zero, Nasrulloh so'zi arabchada "Allohning zafari", "Allohning ko'makchisi" kabi ma'nolarni anglatadi) haqida tarixiy romanlar yozish va badiiy filmlar yaratish lozim. Ana o'shandagina biz hozirgacha tahqirlab kelinayotgan Amir Nasrulloxonning xotirasi oldidagi qarzimizni oz bo'lsada uzgan bo'lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan.// Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 28 dekabr.
2. Muhammad Nasriddin Hanafiy Hasaniy Buxoriy "Tuhfat az-zoirin"
- 3.Мирза Абдалазим Сами. Таърих-и салатин-тийя. – Москва: Изд-во Восточной литературы, 1962. - С.55

«Development of science» international conference

- 4."Buxoronomma" gazetasi "Buxoro qo'shbegilari" maqolasi
- 5.Ishoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi"
- 6.Fitrat. Amir Olimxonning hukmronlik davri. T.: Minhoj, 1992-yil. 8-bet
- 7.Поён Равшанов ўзининг «Малика Кенагас ойим ёхуд Амир Насруллонинг ўлими қиссаси» (Топ- кент: Шарқ, 2000)
- 8.Кахрамон Ражабов « Насруллоҳон» рисола